

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

CHARLZ DIKKENS ASARLARIDAGI XIX ASR ANGLIYA HAYOTI

Abdusamatova Sevinch Abdumalik qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti,
Ingliz tilshunosligi kafedrası 1-kurs talabasi
e-mail: svnchabd@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Fayziyeva Nilufar Ne‘mat qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti,
Ingliz tilshunosligi kafedrası dotsent vazifasini bajaruvchi, PhD

Annotatsiya. Bugungi kunning eng rivojlangan davlatlaridan bo‘lgan Buyuk Britaniyaning tarixiy holati va siyosati haqida bir qancha yozuvchilar asarlar yaratgan bo‘lib, shulardan biri Charlz Dikkins hisoblanadi. Uning “Oliver Twistning boshidan kechirganlari”, “Devid Kopperfild”, “Og‘ir kunlar” kabi asarlari XIX asrning siyosiy ahvolini yorqin misollarda tasvirlab bergan. Quyidagi maqolada ham Angliyaning o‘tmishi Charlz Dikkins ijodi tavsifida yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Realizm, aktual, jamiyat, siyosat, adabiyot.

XIX ВЕК В ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЧАРЛЬЗА ДИККЕНСА

Аннотация: О историческом состоянии и политике Великобритании, одной из самых развитых стран современности, написали свои произведения многие писатели, и одним из них является Чарльз Диккенс. Его такие произведения, как «Приключения Оливера Твиста», «Дэвид Копперфильд» и «Тяжёлые времена», ярко отражают политическую обстановку XIX века. В данной статье также освещается прошлое Англии через творчество Чарльза Диккенса.

Ключевые слова: Реализм, актуальность, общество, политика, литература.

THE LIFE OF ENGLAND IN THE XIX CENTURY IN CHARLES DICKEN'S WORKS

Abstract: Several writers have created works about the historical state and politics of the United Kingdom, one of today's most developed countries, and among them is Charles Dickens. His works such as “Oliver Twist”, “David Copperfield”, and “Hard Times” vividly depict the political circumstances of the 19th century. The following article also highlights England's past through the lens of Charles Dickens's creativity.

Keywords: Realism, relevant, society, politics, literature.

Kirish

XIX asrning boshlarida Angliya eng kuchli davlatlardan biri edi. Hattoki, O‘rta Osiyo va Yevropaning ko‘pgina davlatlarini o‘z mustamlakasiga aylantirgan. Biroq ozgina muddat o‘tib, taxtga Qirolicha Viktoriya kelgandan so‘ng Angliya turli nizolar sabab ichki inqirozga yuz tutdi. Bu davrda, asosan, mulkdorlik, tabaqalanish va aholining katta qismida moliyaviy qoloqlik yuzaga chiqdi. Ayni shu davrda Angliyaning Portsi orolida joylashgan Lendport shahrida mahoratli ingliz yozuvchisi Charlz Dikkins dunyoga kelgan. Uning hayoti ham oddiy xalq singari qiyinchilikda o‘tgan. Zahmatkash elning og‘ir ahvoli yozuvchi asarlarining bosh mavzusi bo‘lgan va shu yo‘sinda tanqidiy realizm uslubining asoschilaridan hisoblangan. Ko‘pgina manbalarda ham yozuvchi asarlari o‘z hayotining bir qismidan olinganligi ham aytib o‘tilgan.

Adabiyotlar tahlili

Charlz Dikkins ijodi davomida bir qancha realistik va ishqiy - sarguzasht asarlarni yozib qoldirdi. Ularning ayrimlari Angliyaning XIX asrdagi “qora sahna”sini yoritib bergan. Shu kabi asarlardan biri “Oliver Tvistning boshidan kechirganlari” nomli asari hisoblanadi. Asar ellikdan ortiq tillarga tarjima qilingan bo‘lib, ingliz adabiyotining eng yuqori pog‘onasidagi asarlardan biridir. Asar o‘nta bo‘limdan tashkil topgan va har bir bo‘lim Oliverning darbadarlikdagi hayoti, ichki kechinmalari bilan boyitilgan. Bosh qahramon - Oliver Tvist XIX asrning juda ham daxshatli damlariga yoshlik davridayoq guvoh bo‘lgan.

“...Zotan, mehnat uyida tug‘ilish inson bolasi peshonasiga bitilgan baxt, deya ta’kidlamasam ham, baribir hozirgi sharoitda buni Oliver Tvist uchun taqdirning eng a’lo in’omi deb hisobladim. Negaki, Oliver Tvistning nafas olishga ham kuchi yetmasdi...”

Yozuvchi o‘z ijod mahsulini shu so‘zlar bilan boshlar ekan, Angliyaning ijtimoiy holatini ham chetda qoldirmagan. Oliverni mehribonlik uyiga topshirgan kishi Mister Bambl bo‘ladi. Bolalar uyi hali hayotning achchiq ta’mini totmagan bolakay uchun ilk paytda najot maskani bo‘lgani bilan, vaqt o‘tgani sayin qulay, shinam joy emas, balki qiynoqlar va azob - uqubatlar majmuasidek ko‘rinadi. U yerga har bir bola o‘qish uchun olib kelinadi, lekin turli yumushlar va og‘ir mehnatlarga safarbar etiladi. Bolalarning ovqati ham mehribonlik uyining katta lavozimdagi xodimlariga beriladi va natijada bolalarga oz miqdorda ovqat ajratiladi. Biroq Oliver bu yerda ko‘p turmaydi.

...Mehribonlik uyida yashash juda og‘ir edi - Oliver va uning do‘stlari doim och yurishardi, chunki ularga faqat suyuq ovqat berilardi. Bir kuni Oliver hammadan ham ochlikka chidab bo‘lmas darajada yetdi va bosh oshpaz oldiga, qo‘lida kosa va qoshiq bilan kelib dedi:

“Iltimos, janob, menga yana bir oz ovqat bering”. Bosh oshpaz semiz, baquvvat odam edi, lekin u birdan rangi oqarib ketdi. Avval Oliverga hayratdan lol bo‘lib qaradi, so‘ng bolaning boshiga urib, janob Bamblga baqirdi. Janob Bamble Oliverni kichik, qorong‘i xonaga qamab qo‘ydi va u yerda bola kun bo‘yi yig‘lab chiqdi. Ertasi kuni ertalab mehribonlik uyi darvozasiga e’lon ilindi: “Besh funt va Oliver Tvist har qanday erkakka yoki ayolga shogird sifatida taklif qilinadi”.

Shunday qilib, XIX asrning shafqatsiz Angliyasi Oliverni ko‘p qiyinchiliklarga duchor qiladi, lekin baribir uning sof qalbi va pok vijdoni unga go‘zal yakun tuhfa etadi. Bu yo‘lda unga Mister Brounlov ismli xayrixoh bir inson yo‘lboshchi bo‘ladi. Bu asar Charlz Dikkins ijodining kichik qirrasini, xolos.

Yozuvchi hayoti davomida yana bir so‘nmas asar yaratdi hamda uni sevimli bosh qahramonning nomi bilan atadi. Bu asar - “Devid Kopperfild”. Shu paytgacha bir qancha tillarga tarjima qilingan va kitobxonlar tomonidan yuqori baholangan. Ammo o‘zbek tilida to‘liq tarjima varianti mavjud emas. Bu asar roman janrida bo‘lib, ilk bor 1849-1850 - yillarda serial shaklida ommaga ma‘lum qilingan. Asosan, avtobiografik elementga ega asar va yetim qolgan qahramonning bolalikdan to‘katta inson bo‘lishigacha bo‘lgan hayotini tasvirlaydi. Buning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, barcha voqealar qahramonning tilidan hikoya qilinadi. Devid Kopperfildning hikoyasi Dikkinsning o‘z bolaligiga juda o‘xshash bo‘lgani uchun ham ko‘pchilik uni avtobiografik roman deb hisoblaydi. Asar yetimlik, qiyinchilik, mehribonlik va insoniy qadr - qimmat kabi mavzularni qamrab oladi. Shu bilan bir qatorda XIX asrdagi Angliyaning namunasi sanaladi.

“...In the 1820s, English society was divided into three parts: upper class, middle class and lower or working class. These divisions exist in England today but they are less important now...”

Keltirilishicha, XIX asrda Angliyada tabaqalanish darajasi juda yuqori darajaga yetgan, hatto insonlar turli guruhlariga bo‘lingan. Yuqori va o‘rta tabaqa vakillari xizmatida quyi tabaqa vakillari ishlagan. Biroq asar qahramoni Devid o‘rta tabaqaga mansub bo‘lgan.

“...All upper and middle class families had servants, who came from the working class. Charles Dickens belonged to middle class and David Copperfield is a middle class hero...”

Devid Kopperfild o‘rta tabaqa vakili bo‘lsa-da, o‘qimishli, vijdonli va mard inson sifatida voyaga yetadi. Garchi, uy xizmatchisi - Klara Pegotti ularning uyida ishchi vazifasida bo‘lsa ham, Devid uni o‘z onasidek yaxshi ko‘radi va do‘stona munosabatda bo‘ladi. Bu uning yaxshi tarbiya ko‘rganidan dalolat beradi. U yetti yil davomida onasi va Pegotti bilan baxtli hayotda tug‘ilib o‘sadi.

“...My earliest memories are of two women - my dearest mother and dear Clara Pegotty. They both loved me very much. I remember that my young mother had a pale face and soft pretty hair. Pegotty’s hair and eyes were very dark. Her face and arms were hard and red. I think that my mother and I were both a little afraid of Pegotty. But she was a kind woman and we loved her too...”

Biroq vaqtlar o‘tib hammasi tubdan o‘zgaradi. Devidning onasi Murdston ismli bir boy kishiga turmushga chiqadi va Devid Yarmos orolidagi maktabga jo‘natiladi. Lekin bundan oldinroq Pegotti Devidni ayni o‘sha orolga, akasining uyiga olib boradi. Bu, albatta, onasining turmush qurishi uchun kichik bahona bo‘lgan. Yarmosdagi uy asarda mohirona tasvirlangan hamda Angliyadagi insonlar yashash tarzining ayanchli ahvolini yanada yorqinroq ochishga xizmat qilgan.

“...I could see the beach, and beyond it, the sea. But there was no house anywhere. Then I saw an old, black boat that had been pulled up onto dry ground. But this boat had a flat roof and the roof had a metal pipe with smoke coming out of it. There was a door and some little windows in the side of the boat of too...”

Aytilishicha, uy kema ichida joylashgan va shubhasiz, bu holat ko‘p kishilik oilalar uchun noqulaylik tug‘dirgan.

Shunday qilib, Devid bu yerda ancha vaqt qolmaydi. Biroq uyga qaytgandan keyingi voqealar uni yanada hayratga soladi. O‘gay otasi, Mister Murdston va u tomonidan majburan yangi maktabga jo‘natilgan Devid o‘zgacha muhit, boshqa do‘stlar orasida o‘ziga kelishi oson kechmaydi. Shunday bo‘lsa ham, bu hayot unga haqiqiy dars bo‘ladi. Oq-u qorani ajratish, yana o‘sha yaqinlarning qaynoq mehrini tuyish va haqiqiy muhabbat o‘sha davrlarda sodir bo‘ladi. Shuningdek, barcha qiyinchiliklar Devidning buyuk shaxs bo‘lib yetishishida chuqur iz qoldiradi.

Xulosa

Qisqasi, Charlz Dikpens ingliz yozuvchilari orasida o'ziga xos adabiy muhitga ega. Uning ham hayoti, ham ijodi bugungi kundagi yosh ijodkorlarga chin ma'noda namuna bo'lishi mumkin. U yaratgan nodir asarlar esa nafaqat Angliya, balki butun dunyo qalbida abadiy yashaydi. Shu bilan bir qatorda, asarning tub mazmunidagi siyosat va jamiyat mojarosi har bir o'quvchiga bir qadar o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Dikpens ijodidagi ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik sahnalari, mehr - oqibat va insoniylik fazilatlari, dolzab mavzudlarga aktual yondashishi, jamiyat tanqidi va shu orqali adabiyotning eng asosiy bo‘limi bo‘lgan tanqidiy realizmning ta‘minoti bebaho san’atdir. Biz yoshlarning bu asarlardan oladigan tarixiy, adabiy hamda axloqiy merosimiz, albatta, porloq istiqbol uchun o‘z tamal toshini qo‘yajak!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari - T.,2002
2. Boynazarov J. Jahon adabiyoti - T.,2006
3. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm - T., 2020
4. Mamajonov Z. Adabiyotshunoslik lug‘ati - T.,2010
5. Normatova Sh. Jahon adabiyoti - T.,2008
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari - T.,2019
7. To‘rayeva B., Ko‘chimov U. Adabiyotshunoslik - T.,2022
8. Umarov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi - T.,2004
9. Ch. Dikpens. David Copperfield - UK.,2007
10. Ch. Dikpens. Oliver Twistning boshidan kechirganlari - T.,2016